SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 1/S. Jild 4.

2024

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V4SI1Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ S/1 (4) - 2024***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймахамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## *МУНДАРИЖА*

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Fayziyev O'rinboy Toshmuhammad o'g'li*
O‘ZBEKISTONDA ALOHIDA TA‘LIM EHTIYOJIGA EGA BO‘LGAN INSONLARNI IJTIMOIY HIMOYALASH SOHASIDAGI ISLOHOTLAR ........ 9-16

*Эсонов Зиёдбек Юлдашевич*
ФАРҒОНА ВОДИЙСИ МИНГ ЎЗБЕК УРУҒИ МАНБАЛАРИ ТАРИХИДАН ........ 17-22

*Rajapov Mardonbek Qosimboy o‘g‘li*
AFRIG’IYLAR SULOLASI TARIXINING TURK TILLI TADQIQOTLARDA YORITILISHI ........ 23-26

*Исмоилова Нигорахон Усмонжановна*
НАЛИВКИН И ЕГО СВЕДЕНИЯ О ТУЗЕМНОЙ ЖЕНЩИНЕ ........ 27-34

*Мирхакимова Феруза Холдоржон кизи*
ВЗГЛЯД В ИСТОРИЮ МЕМОРИАЛЬНОГО МУЗЕЯ САДРИДДИН АЙНИ ........ 35-40

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Zhao Rong*
RESEARCH ON THE CONSTRUCTION OF CORE CURRICULUM STANDARDS FOR CROSS-BORDER E-COMMERCE MAJORS BASED ON HIGHER VOCATIONAL EDUCATION IN INNER MONGOLIA ........ 41-48

*Husanboyev Sadafbek Yorqinjon o‘g‘li*
FARG‘ONA VILOYATIDA AGROTURIZM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA RESURS SALOHIYATINI BAHOLASH ........ 49-58

*Malikova Gulhayo Turdali qizi*
TIJORAT BANKLARDA INVESTITSION FAOLIYAT TAHLILI ........ 59-64

*Maxmudov Anvarjon*
SOLIQ HUQUQBUZARLIKLARINI TARKIBI, SHAKLLANISH MANBALARI VA ULARNI IQTISODIY MOHIYATI ........ 65-75

*Мухитдинов Ахрор*
РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТДА ЯГОНА МАРКАЗЛАШГАН ДИСПЕТЧЕРЛИК ХИЗМАТИНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ УСУЛЛАРИ ........ 76-82

*Jurayev Xusan Atamuratovich*
KORXONANI MOLIYAVIY SOG'LOMLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 83-89

*Butunov Shaymardan Berdiyarovich*
NOANIQLIK ORQALI HARAKAT QILISH: IQTISODIY BEQARORLIK SHAROITIDA MOLIYAVIY TAHLIL ........ 90-96

*Islomova Mohlaroyim Inomjon qizi, Ortiqova So'g'diyona Abdusodiq qizi, Abdurahimova Zulhumor Azimjon qizi*
TURIZM XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI TEXNALOGIYALARNI QO’LLASH ........ 97-103

*Содиқов Анвар*
ЎЗБЕКИСТОН ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИ ИСТИҚБОЛЛАРИНИ КЎП ОМИЛЛИ ЭКОНОМЕТРИК МОДЕЛЛАР АСОСИДА БАҲОЛАШ ВА МУҚОБИЛ СЦЕНАРИЙЛАРИНИ АНИҚЛАШ ... 104-116

*Norov Asror Egamberdiyevich, Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich*
O‘ZBEKISTONDA DOKTORANTURA FAOLIYATI YO‘LGA QO‘YILGAN OLIY TA’LIM VA ILMIY TADQIQOT MUASSASALARI ........ 117-122

**09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

*Эшонкулова Нуржахон Абдужабборовна*
ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТЛАРИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ: ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛ ........ 123-130

*Khalilova Shakhlo Abdurashitovna*
IBN SINA AND HIS CONTRIBUTION TO SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION: RETHINKING THE HERITAGE OF EASTERN THINKERS ........ 131-136

**10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Saidov Hakim G‘ofurovich*
VATANPARVARLIK VA MILLIY G‘URURNING FALSAFIY KATEGORIAL NEGIZLARI ........ 137-141

*Jabborov Jamshid Azimovich*
MA’NAVIY EHTIYOJLAR JAMIYAT MA’NAVIY HAYOTINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA ........ 142-148

*Соатов Ғайрат*
БАЙРАМЛАР – МИЛЛАТНИНГ ОЛИЙ ҚАДРИЯТИ ........ 149-156

*Raxmatova Xolidaxon Xolikovna*
NAQSHBANDIYLAR EHTIROMIGA SAZOVOR BUYUK ZOT ........ 157-161

*Wang XiaoYu*
AN ANALYSIS OF THE MYTHICAL PATTERNS IN ULYSSES FROM THE PERSPECTIVE OF ARCHETYPE THEORY ........ 162-170

*Mamadkulova Kamila Abdukhalikovna*
FEATURES OF 19th CENTURY LITERATURE: ROMANTICISM AND REALISM ........ 171-175

*Aripova Saodat Taxirovna*
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KONCHILIK LEKSIK BIRLIKLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSUYATLARI ........ 176-181

*Xudoyqulov Behzod Abbosovich*
ITALYAN TILIDAGI FRAZEOLOGIK IBORALAR TARJIMASI VA ULARNING O’ZBEK TILIDAGI EKVIVALENTLARI ........ 182-187

*Mavlonova Gulnora Abdig’ani qizi*
ADABIYOTDA QO’LLANILGAN EVFEMIZMLAR (ROMAN VA SHE'RIYAT) MISOLLAR BILAN ........ 188-192

*Tuxtayeva Dildora Zokirovna, Izzatilloyeva Sevinch Nusratilloyevna*
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “YAXSHILIK” KONSEPTINI IFODALOVCHI MAQOLLARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI ........ 193-197

*Djurayeva Orzigul Gafurovna*
QAXXOR BAXSHI RAHIMOV IJODINING O‘RGANILISHI ........ 198-204

*Gafarova Shahnoza Hayrullayevna*
TIL VA TA’LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ........ 205-209

## 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

*Исломқулова Шоҳсанам Ваҳобжон қизи*
ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШНИ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ОМИЛЛАРИ ВА ЗАРУРИЯТИ ........ 210-215

*Sarvinoz Sunnatillaeva*
PROCEDURAL CHALLENGES IN THE REGULATION OF ABUSE OF DOMINANT POSITION IN UZBEKISTAN ........ 216-222

## 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

*Soliyev Ibodulloxon Ismatullayevich*
FACTORS AFFECTING THE EFFICIENCY OF REFORMS IN THE MANAGEMENT SYSTEM OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS ........ 223-233

*Shokirov Po'lat*
TALABALARGA ATLETIK GIMNASTIKA MASHG'ULOTLARINI JOZIBADORLIGINI OSHIRISHING USLUBIY ASOSLARI ........ 234-238

*Begmatova Dilnoza Muxtarovna*
JAHON MIQYOSDA TA'LIM JARAYONI SUBYEKTLARIDA MADANIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH TENDENSIYALARI ........ 239-243

*To'rayev Panji To'xtayevich*
MILLIY KURASH MASHG'ULOTLARIDA UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIKNI TASHKIL ETISH VA SHAKLLANTIRISH ........ 244-248

*Axmedova Nafisa Isaxodjayevna, Azamatov Abdullo Isaxo'ja o'g'li, Lutfullina Rumiya Anvarovna*
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAKULTETLARI TALABALARI UCHUN ANTIDOPING QOIDABUZARLIKLARINING OLDINI OLISH MEXANIZMINI YARATISH ........ 249-256

*Egamberdiyev Javlonbek*
TA'LIM MUASASSALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL QILISH VA UNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI ........ 257-260

*Kenjaboev Abdisalim Erkaboevich*
ZAMONAVIY TA'LIM- TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK RAHBARNING KOMPETENTLIGI ........ 261-265

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ S/1(4) - 2024
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

**Egamberdiyev Javlonbek**
Xalqaro innovatsion universitet oʻqituvchisi (Qarshi)

## TA’LIM MUASSASALARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI TASHKIL QILISH VA UNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlar, ularning ilmiy-uslubiy asoslari izchil tahlil qilingan. Shuningdek, Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy sohadagi islohotlar, ta’lim muassasalarida yutuq, kamchilik, muammo va ularning yechimlari, tashkil etilayotgan tadbirlarda tarbiyaviy jarayonlar ilmiy asoslangan.

**Kalit soʻzlar:** ma’naviy-ma’rifiy ishlar, ta’lim muassasalari, milliy, tadbirlar, ma’naviyat, ma’rifat,ijod, inson qadri, tarbiya, ma’naviy ehtiyoj, dunyoqarash.

**Egamberdiyev Javlonbek**
Teacher of the International Innovation University (Karshi)

## ORGANIZATION OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORK IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND ITS SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASIS

**Abstract.** This article, spiritual and educational activities organized in educational institutions, their scientific and methodological bases are consistently analyzed. Also, reforms in the spiritual and educational sphere, achievements, shortcomings, problems and their solutions in educational institutions, educational processes in organized events are scientifically based.

**Key words:** spiritual and educational works, educational institutions, national, events, spirituality, enlightenment, creativity, human value, education, spiritual need, worldview.

**Эгамбердиев Джавлонбек**
Преподаватель Международного инновационного университета (Карши)

## ОРГАНИЗАЦИЯ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ РАБОТЫ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ И ЕЕ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКАЯ ОСНОВА

**Аннотация.** В данной статье последовательно анализируется духовно-просветительская деятельность, организуемая в образовательных учреждениях, ее научные и методические основы. Также научно обоснованы реформы в духовно-просветительской сфере, достижения, недостатки, проблемы и их решения в образовательных учреждениях, образовательные процессы в организованных мероприятиях.

**Ключевые слова:** духовно-просветительская деятельность, образовательные учреждения, национальные, события, духовность, просвещение, творчество, человеческие ценности, образование, духовная потребность, мировоззрение.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI1Y2024N37

**Kirish.** Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan hayotbaxsh gʻoyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Bu borada olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi yangilanishlar jarayonida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

**Tahlil va natijalar.** Hozirgi globallashuv davrida yoshlar ong-u shuurida yuzaga kelayotgan oʻziga xos ijtimoiy-ma'naviy, ruhiy oʻzgarishlar ta'lim tizimidagi ishlarni zamonaviylik, muhimlik va samaradorlik, ta'sirchanlik nuqtai nazaridan toʻliq qayta koʻrib chiqishni talab etmoqda.

Yoshlarning bilim va saviyasini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish, iqtidorli talabalarni faol qoʻllab-quvvatlash maqsadida ta'lim muassasalarida bir qator tanlovlar, sport musobaqalari muntazam oʻtkazib kelinmoqda. Bu ishlarning barchasi shu paytga qadar shakllantirilgan mavjud tizim va mexanizmlar doirasida tashkil etilmoqda. Qolaversa, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarning samaradorligi, ta'sirchanligi, zamonaviyligi jihatidan oʻz ahamiyatini yoʻqotgani yoʻq.

Shunday boʻlsa-da, bugungi globallashuv va tezkor axborot asrida, mamlakatimizdagi demokratik islohotlarga hamohang soʻz erkinligi tufayli ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining davlat va jamiyat boshqaruvidagi oʻrni keskin faollashdi. Bunday pallada yoshlarning ta'lim-tarbiyasi borasidagi ishlarni yangi bosqichga koʻtarish ehtiyoji paydo boʻldi. Albatta, bunday murakkab vaziyatda ishlash, natijaga erishish uchun, eng avvalo, sharoit va yuqori malakali kadrlar kerak.

Xususan, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emas, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmayapti, ushbu yoʻnalishda davlat tashkilotlari, ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yoʻlga qoʻyilmagan.

Tahlillar shuni koʻrsatmoqdaki, keyingi yillarda ayrim yoshlarda millatga, Vatanga foyda keltirishni oʻylash, mustaqillikni mustahkamlashda foydali inson boʻlib yetishish hissi maxsus, ilmiy asosda shakllantirilmaganligi tufayli shaxsiy manfaatni oʻylash, yengil yoʻllar bilan toʻkis hayotga intilish hissi namoyon boʻlmoqda. Shu bilan birga ayrim oʻquvchilar orasida ma'naviy cheklanganlik, dunyoqarashning torligi tufayli yot gʻoyalarga aldanish, milliy odob me'yorlariga rioya qilmaslik, soʻz va ish orasidagi tafovut, milliy gʻururning sustligi kabi noxush koʻrinishlar uchrab turadiki, ularni ilmiy asosda oʻrganib, bartaraf qilish lozim.

Shu nuqtai nazardan, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samaradorligini oshirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil

23-sentabrdagi OʻRQ-637-son "Ta'lim toʻgʻrisida"gi Qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga moʻljallangan yangi "Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida"gi Farmoni, 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy- ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PQ-5040-son Qarori qabul qilinib, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi yangilanishlar jarayonida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning samaradorligi oshishiga zamin yaratildi.

Ushbu qarorlardan koʻrinib turibdiki Respublikamizda oʻtkazilayotgan iqtisodiy islohotlar taqdiri pirovard natijada maʼnaviy-maʼrifiy ishlarni qay darajada yuksak saviyada tashkil qila bilish muhim hayotiy muammodir. Sababi, maʼnaviy–maʼrifiy ishlarning asosiy vazifasi yuksak axloqiy fazilatlarni oʻzida mujassamlashtirgan komil insonni tarbiyalashdan iborat. Bugungi kunda bilimdon, yetuk malakali, yuksak aql-zakovat va istiqbol dunyoqarashiga ega tadbirkor kishilargina jamiyatimizning jahon sivilizatsiyasi sari taraqqiyotini tezlashtira oladi, Oʻzbekistonning dunyodagi rivojlangan mamlakatlar safidan munosib oʻrin egallashini taʼminlay oladi. Oʻzbekiston mustaqilligini mustahkamlashning va yangi jamiyatni qurishimizning eng asosi boʻlgan maʼnaviyat va maʼrifatni yuksaltirish hamda uni izchillik bilan hozirgi zamon talablari, milliy ruhiyatimizning ildizlariga suyangan holda yanada rivojlantirish bugungi kunning dolzarb va gʻoyat muhim vazifasidir.

Darhaqiqat, maʼnaviy-maʼrifiy ishlarni amalga oshirishda asosiy maqsad yoshlarni boʻsh vaqtlarini mazmunli oʻtkazish, ularning maʼnaviy, estetik ehtiyojlarini qondirish, maʼnaviy dunyosini boyitish, vatanparvarlik, fidoyilik, mehnatsevarlik hissiyotlarini rivojlantirish, jamiyat taraqqiyotida oʻz oʻrnini egallashi, kelajakda jamiyatning faol aʼzosi sifatida shakllanishi, ilmli, bilimli, zukko boʻlishi kabi ulugʻ maqsadlar qoʻyilgan.

Hozirgi kunda bunday ishlar taʼlim muassasalarida yaratilgan sharoitga mos ravishda yoshlar taʼlim-tarbiyasi borasidagi ishlarni yagona tizim va mexanizmlar asosida tashkil etish lozim. Buning uchun sohadagi dolzarb vazifalar, muammolar va ularning yechimiga alohida toʻxtalish oʻrinlidir. Zotan, keyingi paytlarda talabalar bilan bogʻliq yuzaga kelayotgan holatlar oldimizda hal etilishi zarur boʻlgan masalalar turganini koʻrsatmoqda.

Birinchidan, taʼlim muassasalarida oʻtkazilayotgan biryoqlama, zerikarli va “qolipga solingan” anʼanaviy maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar bugungi kunda oʻzini oqlamayotgani tobora ravshanlashib bormoqda. Mazkur tadbirlarning talabalarni qamrab olish darajasi juda past va har doim bir xil kontingentni koʻrish mumkin. Shu bois, maʼnaviy-maʼrifiy ishlarni tashkil etish majburiy emas, balki talabalarning xohish-istaklariga hamohang, qiziqishlariga mos boʻlishiga alohida eʼtibor qaratish muhim.

Ikkinchidan, aslida maʼnaviy-maʼrifiy sohadagi eng katta muammo soha qamrovining kengligi, tarbiya metodikasining mavhumligi va tarbiyaviy ishlar samaradorligini baholashning ilmiy asoslangan mezon va koʻrsatkichlari mavjud emasligidadir. Taʼlim muassasalaridagi maʼnaviy-maʼrifiy ishlarni tashkil etishga masʼul xodimlarning koʻpincha ishni xoʻjakoʻrsinga tashkil etishi, tadbirlarni hisobot uchun nomigagina oʻtkazishi oqibatida natijadorlikka erishish ikkinchi darajaga tushib qolmoqda. Maʼnaviy-maʼrifiy soha qamrovi keng olingani, yuqori turuvchi tashkilotlar tomonidan takroriy yoki son jihatdan koʻp topshiriqlarning berilishi, talabalarning xohishi inobatga olinmasdan majburiy tadbirlarga jalb qilinishi, sohada aniq chegara va yagona ish dasturining mavjud emasligi ishlarni tizimli tashkil etishga imkon bermayapti.

Uchinchidan, talabalar va oʻquvchilar kontingentining oshib ketgani taʼlim muassasalarida oʻquv auditoriyalari yetishmasligini keltirib chiqardi. Hozir deyarli barcha davlat oliy taʼlim muassasasi ikki smenali oʻqishga oʻtgan. Natijada qoʻshimcha auditoriyalar yaratish hisobiga taʼlim muassasalarida talabalar va oʻquvchilarning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etishga koʻmaklashuvchi maʼnaviy-maʼrifiy makonlar (sport inshootlari, kutubxona, madaniyat maskanlari, mediamarkaz, maʼnaviyat xonalari) kamayib bormoqda.

To'rtinchidan, ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar olayotgan axborotning mazmuni, saviyasiga nisbatan ortda qolyapmiz. Bugun aynan ijtimoiy tarmoqlar katta minbarga aylangani, yoshlarni shu minbarga chiqayotganlar tarbiyalayotganini hisobga olishimiz kerak. Albatta, ta'lim muassasalari tomonidan faollar zalida 100-200 talaba uchun o'tkazilgan tadbir bilan ijtimoiy tarmoqlarning 100 minglab yoshlarimiz ong-u shuuriga ta'sirini taqqoslab bo'lmaydi. Agar ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan axborotning yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sirini puxta o'rganmasak, bu jarayondan ortda qolsak, ma'naviy-ma'rifiy sohada sezilarli bo'shliq yuzaga kelishi ehtimoli katta. Shuning uchun ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarga ta'sirini jiddiy o'rganish, tahlil va tadqiq qilish, shu asosda auditoriyalarda tashkil etiladigan eski shakldagi, yetarli samara bermaydigan, quruq ma'ruzabozlikdan iborat tadbirlarga barham berish vaqti keldi.

Beshinchidan, talabalar va o'quvchilarning ta'lim muassasalariga kelgan kunidan tanlagan o'quv yurtidan faxrlanishga o'rgatish, sog'lom muhit yaratish, talabalar va professor-o'qituvchilar o'rtasida samimiy munosabat o'rnatish, "ustoz", "oliy ta'lim muassasasi talabasi" degan yuksak maqomga har tomonlama munosib bo'lish, mas'uliyat bilan o'zida yuksak axloqiy sifatni namoyon etishiga erishish muhim masalalar sirasiga kiradi.

Oltinchidan, so'nggi paytlarda ta'lim muassasalarida kuzatilayotgan noxush holatlar, suiqasd bilan bog'liq fojialarning oldini olish uchun talabalar va o'quvchilarning ruhiy-psixologik holatini baholash, ularning muammosiga tashxis qo'yish hamda shu asosda zarur psixodiagnostika, davolash-profilaktika ishlarini yo'lga qo'yishimiz zarur.

Yettinchidan, talabalar va o'quvchilarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi borasidagi mavjud muammolarni o'rganadigan, tahlil qiladigan va ilmiy asoslangan zamonaviy targ'ibot metodlarini, shu asosda soha mutasaddilari uchun zarur uslubiy tavsiyalar ishlab chiqadigan, ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradigan "aql markazlari" faoliyatiga zarurat sezilmoqda.

**Xulosa.** Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, aniq maqsadlarni oldiga qo'ygan holda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni maqsadli tashkil etish, u orqali insonlar ongida Vatanga muhabbat ruhini singdirish, ular orasida ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash, ularni ertangi kunga ishonch bilan bunyodkorlik ishlariga jalb etish, ma'naviyatini yuksaltirish, ilmli, bilimli, jamiyatga nafi tegadigan inson bo'lib yetishishlarida bu faoliyatning ahamiyati beqiyosdir.

## Adabiyotlar/Литература/ References:


1. Prezident Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarori. Yangi O'zbekiston. www.lex.uz
2. Prezident Sh.Mirziyoyevning Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori. // Xalq so'zi. 2018-yil, 15- avgust
3. Otamurodov S. va boshqalar. "Ma'naviyat asoslari" T. "Ma'naviyat", 2002y.
4. Egamberdiyev J. Milliy mustaqillikni asrash g'oyalarining ijtimoiy-tarixiy genezisi // UzA ilm fan bo`limi elektron jurnali. T., 2023. № 10 (48). 230 b.
5. Egamberdiyev J. Socio-historical genesis of ideas that form the spiritual image of youth. Best journal of innovation in science, research and development. ISSN: 2835-3579. SJIF 2023: 5.493

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V4SI1Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/1 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).